

XALQLAR PSIXOLOGIYASIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПСИХОЛОГИИ ЛЮДЕЙ

SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE PSYCHOLOGY OF PEOPLE

Qurbonova Saida Miralimjanovna

FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

Annotatsiya: *Mazkur maqola xalqlar psixologiyasiga ilmiy-nazariy yondashuvlar mavzusida ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *Motivatsiya, kontekstli, ehtiyoj, qo'zg'ovchi, kategoriya, regulyator, motiv, emotsiya, ideallar.*

Qadimgi dunyo mutafakkirlari Demokrit, Gippokrat, Aristotel, Gerodot va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiy printsiplarni qidirib topishga harakat qildilar.

Xalqlarning psixologik xususiyatlarini tabiiy-iqlim va boshqa geografik omillar bilan bog'lab tushuntirish faqat qadimgi dunyo olimlariga xos bo'lib qolmasdan, bunday talqin XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan bir qancha yirik faylasuflar va psixologlar Monteske, Gegel, Gumboldt, Shteyntal, Latsarus va boshqalarda, shuningdek, hozirgi davrdagi ayrim sotsiolog va psixologlarda ham uchraydi.

Ijtimoiy psixologiyadagi geografik oqimning asoschilaridan bo'lgan mashhur Frantsuz olimi Sh.Monteske (1689-1755) xalqlar o'rtasidagi psixologik tafovutlarni asosan kishilar natijasi, odamlarning ko'payib borishi deb tushuntirdi. Monteskening bu nazariyasi o'sha davrda hukmronlik qilib turgan ijtimoiy hodisalarni ham, halq xayotidagi voqealarni ham ilohiyot nomi bilan tushuntirib

erayotgan diniy aqidalarga qarshi qaratilgan bo'lib, ijtimoiy hayot hodisalari hech qanday samoviy kuchlar tahsiri ostida vujudga kelmasdan, aksincha, o'zining kelib chiqishi bilan tabiiy kuchlarga daxldorligini, shuning uchun ham uni din namoyondalari emas, balki ilm-fan bilan shug'ullanadigan kishilar tushuntirib berishi kerakligini ko'rsatdi.

Monteskening bu qarashlari o'z davri uchun ancha progressiv ahamiyat kasb etib, tabiat va jamiyat hodisalariga materialistik yondashish edi.

Monteske o'zining geografik determinizm nazariyasi bilan o'z davridagi olimlarning ko'pidan ustun turdi. Lekin u geografik muhitning rolini mutloqlashtirib, tarixiy jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omillarini inkor etdi. Bu esa XIX asr o'rtalarida uning izdoshlarini mustamlakachilar zulmi ostida ezilib kelayotgan xalqlarning tarixiy taraqqiyotdagi qoloqligi sabablarini tushuntirib berishda reaksiyon xulosalar qilishga olib keldi.

Keyingi yuz yilliklar mobaynida er sharida iqlim deyarli keskin o'zgarishlar sodir kilmadi. Lekin insoniyat hayotida katta ijtimoiy tarixiy o'zgarishlar bo'lib o'tdiki, bu o'z navbatida, xalqlarning psixologik qiyofasini o'zgartirib yubordi. Shuningdek, psixologik xususiyatlarning shakllanishida geografik muxitning rolini ham butunlay inkor etib bo'lmaydi. Tabiiy geografik muhit xalqning yashashi uchun zarur bo'lgan doimiy va zarur shart-sharoit sifatida uning psixologiyasini shakllanishida va rivojlanishida muhim rolg' o'ynaydi.

Nemis psixologi V.Vundt milliy psixologik qiyofani o'rganishda individual psixologiya bilan milliy psixologiyani aralashtirib yuborgan o'z zamondoshlarini, xususan, Latsarus va Shteyntallarni qattiq tanqid qildi. Vundt qarashlarining muhim tomoni shundaki, u milliy psixologik qiyofa shakllanishini tarixiy shart-sharoitlar asosida tushuntirib berishga harakat qildi. Masalan, u nemis xalqining psixologik qiyofasini tahlil qilganda, ular xarakterida tadbirkorlik, har bir ishni hisob-kitob bilan qilishlik, batartiblik va Vatan oldidagi burchni yaxshi his qilish kabi ijobiy xislatlar bilan birga, boshqalarga ko'r-ko'rona taqlid qilishlik ham borligini ko'rsatib berdi. Bu kamchilikning vujudga kelishida Germaniyaning siyosiy faoliyatida boshqa Evropa davlatlariga qaraganda keyinroq maydonga chiqishi va Germaniyada o'rta asrchilik, diniy mutaassiblik bilan yangi davr ruxi o'rtasidagi yuz yillar mobaynida davom etgan kurash natijasi bo'lib, bu tarixiy protsess nemislarning milliy psixologik qiyofasiga o'z tahsirini ko'rsatgan deb tushuntiradi, u.

V.Vundt qarashlarida birmuncha to'g'ri fikrlar mavjud bo'lsa-da, lekin u ham milliy psixologik qiyofaning asosiy masalalarini ilmiy asosda hal qilib bera olmadi.

Uyg'onish davridagi ajdodlarining psixologik qiyofasini tahlil qilishga harakat qilgan va bu sohada ma'lum natijalarni qo'lga kiritgan frantsuz psixologi Robert Mandruning ham qarashlarida, xulosalarida birmuncha ijobiy fikrlar bor. Farbdagi qator oqimlar fikrlaridan farqli o'laroq, u psixologik xususiyatlarning vujudga kelishini jamiyatdagi mavjud sohalarning taraqqiyoti bilan bog'lab tushuntirishga harakat qildi. Mandru tabiat kuchlari oldida o'zini ojiz his qilish XVI-XVII asr odamlari uchun xarakterli xususiyat, deb qaraydi. Turli-tuman qiyinchiliklar va falokatlar bilan tinimsiz kurash olib borish bu davr kishilarini o'ta tahsirchan va kuchli hissiyot egasi qilib qo'yadi. Kuch ishlatishning har qanday ko'rinishlari mahqullangan va kuchli hissiyotlarning namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratilgan bunday muhitda kishilarda shunday psixologik kechinmalarga nisbatan ehtiyoj vujudga kela boshlaydi. Shu sababli kishilarning kuchli ehtirosini qondirish uchun ularda kuchli kechinmalarni vujudga keltiradigan, larzaga soladigan turli-tuman tomoshalar va ko'ngil ochishlar, jazolashlarning eng ashaddiy shakllari - chopib o'ldirish, o'tda kuydirish, dorga osish va boshqalar vujudga kelgan.

Mandruning yuqorida keltirilgan faktlari Uyg'onish davri kishilariga xos bo'lgan xususiyatlarni tushuntirib berishga bo'lgan intilishining natijasi bo'lganligi uchun xam diqqatga sazovordir.

N.Jandildin qozoq xalqiga bo'lgan ayrim vazminlik, kamsuqumlikni xo'jalik yurgizish xususiyatlari bilan bog'liq deb ko'rsatadi. Qozoq xalqining taqdiri va turmush tarzi boshqa

yo'sinda davom etdi. Ular yashaydigan tabiiy geografik sharoit - bepoyon adir va qirlar chorvachilik bilan shug'ullanish uchun qulay bo'lib, ular butun umr chorvachilik bilan shug'ullanib kelishdi va chorvachilik ularning xo'jalik hayotining deyarli butun qismini tashkil etib keldi. Aholining tarqoq holda joylashuvi o'zaro aloqa o'rnatishni qiyinlashtirardi. Natijada ular uzoq vaqt davomida yolg'iz yashashlikka majbur edilar. Bu esa yuqorida aytilganidek, o'zaro muomalada kamgaplikni, hatto o'zining eng nozik va qaynoq tuyg'ularini bayon etishda vazminlikni vujudga keltirardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. International scientific online conference. Canada. Part 2, 23.01.2022. 1-3

2. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 11, Nov.(2022). 117-121 pages.

3. QURBONOVA Saida Miralimjanovna, RAXMATJONOV Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //MAMLAKATIMIZ PSIXOLOGLARI ISHLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATDA MUOMALA MUAMMOSINING TALQINI// Journal of Pedagogical and Psychological Studies. Vol. 1. № 5, (2023). 99-103 pages.

4. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS// IQRO JURNALI № 2. 04.2023. 503-511 betlar.

5. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li //XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. Vol. 1. № 12, 2022. 39-47 pages.

6. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA// International Journal of Economy and Innovation. Volume: 30. 2022. 66-70 pages.

7. Rakhmatdjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS// IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. Vol. 2 No. 11 (2022). 215-221 betlar.

8. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi// American Journal of Social and Humanitarian Research, Vol. 3 No. 11 (2022). 256-259 pages.

9. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //TOLERANTLIK SHAKLLANAYOTGAN SHAXS MODELINING TAVSIFI// International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». VOLUME 2 / ISSUE 5 /2023. 761-764 pages.

10. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li. (2023). PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA TURLARI, NAZARIYALARI VA TAHLILI. Научный Импульс, 1(10), 665-670.

11. Raxmatjonov, S. (2023). DESCRIPTION OF THE PERSONALITY MODEL FOR FORMING TOLERANCE. *Modern Science and Research*, 2(5), 761-764. Dilshodbek o'g'li R. S. TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 30. – С. 66-70.
12. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.
13. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon, and Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li. "XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 1.12 (2022): 39-47.
14. Dilshodbek o'g'li R. S., Boxodirjon o'g'li V. A. XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 39-47.
15. Dilshodbek o'g'li, R.S. (2023). SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS. *IQRO JURNALI*, 2(2), 503-511.
16. Rakhmatdjonov, S., & Dadajonova, N. (2023). CONCEPT OF WILL AND IST THEORIES. В *INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY* (Т. 3, Выпуск 10, сс. 269–273).
17. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li, Raxmonova Sharifa Asankulovna. (2023). DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN STUDENTS AS A SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 17–21.
18. Raxmatjonov, S. (2023). THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN THE PHYSICAL AND PSYCHOLOGICAL HEALTH OF SPORTSMEN. *Modern Science and Research*, 2(5), 1015-1018.
19. Axmatxonovna, G.A. X., & Iqboljon o'g'li, T.J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 600-606.
20. Ganieva, H. (2021). Social And Psychological Mechanisms Of Self-consciousness Of Students. *European Scholar Journal*, 2(4), 190-193.
21. Akhmatkhonovna, G.K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 335-337.
22. Akhmatkhonovna, G.K., & Jamshid, T. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1053-1058.
23. Ахматхоновна, F.X. (2021). Талаба ёшларнинг ўз-ўзини англашни ижтимоий психологик механизмлари. *ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ*, 46-49.
24. Akhmadkhonovna, K.G., Rustamovna, A. A., & Saydolimovna, Z. D. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF

RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

25. Ganieva, K.A. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 607-613.

26. Ganieva, K.A. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 607-613.

27. Ғаниева, Х.А., & Закирова, Д. С. (2022). ЎСМИРЛАРДА ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 548-553.

28. Ахматхоновна, Ғ.Х. (2022). ШАХС ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(5), 89-95.

29. Ganieva, K. Iqboljon O'g'li, TJ (2022). Social psychological characteristics of the dysfunctional family. Academia Globe: Inderscience Research, 3(7), 71-75.

30. G'Aniyeva, X., & Tojimamatov, J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. Science and innovation, 1(B7), 517-523.

31. Ganieva, K., & Tojimamatov, J. (2020). THE ATTITUDE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH OF PERSON. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 87-89).

32. G'Aniyeva, X.A., & Qambarova, M.A. Q. (2023). INTELLEKTUAL SALOHİYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O'QITUVCHI IJTIMOİY INTELLEKTINING ANAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 449-454.

33. Х.Ғаниева, & Хакимова Mavluda. (2023). ТАЛАБАЛАРДА ГЕНИАЛЛИККА ИНТИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Scientific Impulse, 2(13), 449–454.

34. Ғаниева Халимахон Ахматхоновна, & Рузибоева Аълохон. (2023). УДК: 301.085.15. ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ИЖТИМОИЙ МУХИТНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Scientific Impulse, 2(13), 455–464.

35. Ғаниева Х, & Сиддикова Барно. (2023). ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛИ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ЎҚИТУВЧИ ИЖТИМОИЙ ИНТЕЛЛЕКТИНИНГ АҲАМИЯТИ. Scientific Impulse, 2(13), 472–477.

36. Ganieva H, & Siddikova Barno. (2023). THE IMPORTANCE OF THE TEACHER'S SOCIAL INTELLIGENCE IN EDUCATING YOUNG PEOPLE WITH INTELLECTUAL COMPETENCE. Scientific Impulse, 2(13), 478–483.